

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Tabiiy fanlar fakulteti dekani
_____ A.Nazarov
« ____ » _____ 2019 yil

5140600 – Geografiya ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchisi

Xamidova Mo‘tabarxon Abdumalik qizining

**«FARG‘ONA VODIYSIDA EKOTURIZM VA UNI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI» mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
Geografiya kafedrasi mudiri
X.Mirzaaxmedov _____
« ____ » _____ 2019 y.

BMI rahbari: g.f.n., dotsent
K.Boymirzayev _____
« ____ » _____ 2019 y.

Namangan – 2019

Annotatsiya

M U N D A R I J A		
	Kirish.....	
I-BOB.	EKOTURIZMNI ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1	Farg’ona vodiysining tabiiy-geografik tavsifi	
1.2	Ekoturizmni ilmiy asoslari	
1.3	Ekoturizmning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti	
1.4	Ekoturizmning rivojlanish tarixi	
II-BOB.	FARG’ONA VODIYSIDA EKOTURIZM HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI	
2.1	Ekoturizmni rivojlantirishning iqtisodiyotdagi ahamiyati	
2.2	Farg’ona vodiysining turizmdagi ko’rsatkichlari	
2.3	Farg’ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning ayrim masalalari va ularni hal etishning ustuvor yo’nalishlari	
	Xulosa.....	
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	
	Ilovalar.....	

Mavzuning dolzarbligi. Jahon da ekologik muammolarni yechimini topishning ijtimoiy-iqtisodiy samarali ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari deya e'tirof etilgan. Chunki, u aholining salomatligini saqlab qolish, yangi ish o'rinlarini yaratish va yalpi ichki mahsulotni oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Jaxon bo'yicha tabiat milliy bog'lari hozirda 1200 tadan oshib ketdi. Keyingi yillarda, hususan, Kosta - Rika hududini katta qismini ekoturizm rivojlantirish ob'ektiga aylantirdi. Keniya davlatida ekoturizmdan tushadigan yillik daromad 500 mlrd. dollarga yetgan. Ekvador davlatida esa, bu ko'rsatkich 200 mln.dollarni tashkil etadi.

Shu sababdan, O'zbekiston mintaqalarida jumladan, Farg'ona vodiysida ham ekoturizmni samarali rivojlantirish va tashkil etish hamda ilmiy tadqiqotlar asosida mazkur tarmoq tarkibini takomillashtirishni taqazo etadi. Bugungi kunda Farg'ona vodiysi turizm va uning tarmoqlarida (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal, shop) xizmat turlarini shakllantirish va rivojlantirish, turistik maskanlar imkoniyatidan samarali foydalanish, hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olish, ko'p tarmoqli tur firmalarni rivojlantirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning ro'li va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish», hamda «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash»¹ yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiiy sharoiti va ijtimoiy vaziyati turlicha bo'lgan Farg'ona vodiysida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik hususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim

¹ Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистан Республикасини янада ривожлантириш буйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

ahamiyat kasb etadi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan va borayotgan dunyo hamda o'zbek olimlaridan D.Landberg, M.Kchishnallor, M.Stavenga, M.Ansoff, R.Bolmostor, V.Azar, V.Kistanov, A.Aleksandrova, N.Burgakov, V.Molchanov, Ye.Puzakova, G.Nazarova, T.Tashmurotov, A.Saidov, N.Abdusalomova, A.Norchayev, N.Fayziyeva, O.Hamidov, A.Nigmatov, B.Kamalov va boshqa ko'plab olimlar o'z hissalari qo'shganlar. Shuningdek, ekoturizmni rivojlantirish usullari ustida shu kungacha yaxlit ilmiy izlanish amalga oshirilmagan.

BMIning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning *maqsadi* Farg'ona vodiysida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda rivojlantirish uchun ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik hususiyatlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Qo'yilgan maqsad quyidagi *vazifalarni* bajarishni taqazo etdi:

- Farg'ona vodiysini tabiiy va ijtimoiy geografik jihatdan tavsiflash;
- turizmga qo'yiladigan talablarni aniqlash va uni taxlil qilish
- vodiyning ma'muriy birliklari asosida ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, monitoring olib borish uchun taklif va tavsiyalar berish;
- vodiylar hududini ekoturistik rayonlashtirish, sayyohlik marshrutlarini ishlab chiqish va kelajak istiqbollari belgilash.
- hududlarning, ayniqsa tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag'batlantirish;
- istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish;
- ekoturizm manzillari qishloq hududlarida joylashganini hisobga olib, ularga olib boruvchi avtomobil yo'llarini tamirlash, avtomagistrallar bo'ylarida ovqatlanish va dam olish maskanlarini barpo etish hamda mavjudlarining sanitariya holatini talab darajasida bo'lishiga erishish;

BMIning obekti va predmeti. Tadqiqot obyekti Farg'ona vodiysining

diqqatga sazovor bo'lgan ekoturistik mintaqalari. Tadqiqot predmeti Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish masalalari.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari, Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ekologik turizmni rivojlantirish bilan bog'liq huquqiy va me'yoriy hujjatlar, xorijiy hamda malakatimiz yetakchi olimlarining ilmiy tadqiqotlarining tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysiga tashrif buyuruvchi turistlarga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ishdagi ma'lumotlardan ekoturizm mavzusi bo'yicha tayyorlanayotgan mustaqil ish, kurs ishi, maqola va tezislar, turizm geografiyasi fanida foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi. Mazkur ish kirish, ikki bob, xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

I BOB. EKOTURIZMNI ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Farg'ona vodiysining tabiiy-geografik tavsifi

Farg'ona vodiysi o'zining yuqori darajadagi xilma – xil va go'zal tabiatiga ega maskandir. Vodiy tabiiy geografik jixatdan tog' bilan o'ralganligi bois, ushbu tog'li hudud har bir insonni o'ziga jalb etuvchi musaffo havosi, yam-yashil o'rmonlari, yovvoyi tabiatning turli hildagi o'simlik va hayvonot dunyosi, mevali bog'u-rog'lari, shifobaxsh buloqlari, sharqiroq soylari, mo'jizakor g'orlari, viqorli qoyalari, bahaybat xarsangtoshlari, salqin iqlimi, yil bo'yi saqlanib turuvchi qor va muzliklari kabi ko'plab tabiiy rekreatsion resurslariga boydir. Bu resurslarning ayrimlari turistlarni o'ziga jalb etuvchi yetakchi omil vazifasini o'tashi mumkin. Misol uchun vodiyning Chotqol – Qurama tog' tizmalaridan oqib tushadigan CHodaksoy, G'ovasoy, Namangansoy, Kosonsoy, Pochchaotasoy, Turkiston – Oloy tog' tizmalaridan oqib tushadigan Xo'jabaqirg'on, So'x, SHoximardon, Isfara, Isfayramsoy, Farg'ona tizmasidan oqib tushadigan Yassi, Ko'gart, Qorao'ng'ur, Moylisuv kabi daryolarda «Raftingni» yo'lga qo'yish bahzi ekstrim turizmga qiziqadigan turistlarni shu xududga jalb etadi. Bundan tashqari vodiy tog' tizmalaridagi baland qoya va cho'qqilar sport – alg'pinizmga qiziqadigan insonlarni o'ziga jalb etadi.

Tog'lardagi g'orlar (ayniqsa ibtidoiy odamlar yashagan, turli rasm va chizgilari bitilgan, hamda buyuk sarkardalarning askarlari panohtopgan g'orlar) va xarsangtoshlar (ayniqsa turli davr jonzotlarining(misol uchun Dinozavrlarning) izlar va tosh qotgan skeletlari, hamda ibtidoiy odamlarning toshga o'yib chizgan rasmlari mavjud xarsangtoshlar) ham turistlarni o'ziga jalb etuvchi obekt vazifasini o'taydi.

Shuningdek bu tog'larda otlar yordamida tog' cho'qqilariga sayoxatlar uyushtirish, maxalliy tog' axolisi xayoti bilan tanishish va ov turizmini rivojlantirish turizmning o'ziga xos turistlarni o'ziga jalb etadigan tomonidir. Qolaversa, bu tog'larning asl xolicha saqlangan yovvoyi tabiati bilan tanishishga

qiziqadigan turistlarning talabini inobatga olgan holda xukumatimiz tomonidan alohida muxofaza qilinadigan maskanlarni tashkil etish loyixalarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Shuni alohida tahkidlash joizki, yuqorida sanab o'tilgan barcha xushmanzara obektlar aynan muhofaza etiladigan maskanlardagina mavjud bo'ladi va asl holida saqlanadi. Shu sababdan turistlarning tog'larda joylashgan qo'riqxonalar, zakazniklar, milliy bog'lar, ekomarkazlar, pitomniklarga sayoxat qilishi ularga uzgacha zavk – shavk bag'ishlaydi.

Tog' turizmini rivojlantirishdagi yana bir omil kish mavsumida maxalliy axolii va chet eldan kelayotgan mexmonlar uchun tog'larda kor ustida changida uchush uchun sharoitlarni tashkil etish, bu soxa xam umuman yulga kuyilmagan desa buladi. Axir kish mavsumida turistlardan eng kup daromad keltiruvchi soxa, aynan kor ustida uchish. Bu imkoniyat vodiyning kupgina, tumanlarida mavjud.

Bu esa o'z navbatida vodiya ekoturizmni rivojlanishiga yetarlicha tabiiy shart-sharoit mavjudligidan dalolat beradi. Keyigi yillarda Mamlakatimiz va xorijlik ko'plab insonlarning toza xavo, sokin va ochik tabiat kuynida, barcha sharoitlarga ega joylarda dam olishni xoxlovchilar soni ortib bormoqda. SHunday ekan, mavjud ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chikish va moliyalashtirish xozirgi zamon talabi.

Binobarin, Namangan viloyati Pop tumanlariga karashli CHotqol – Qurama tog tizmalarida sport – alg'pinizm shakillantirish, tog'lardagi gorlar, ajoyib manzaralarni asrash va ularni turistik manfaatlar yulida foydalanish zarur. Bu tog'larda otlar yordamida tog chukkilariga sayoxatlar uyushtirish, maxalliy tog axolisi xayoti bilan tanishish va ov turizmini rivojlantirish ekoturizmning uziga xos turistlarni uziga jalb etadigan tomonidir. Kolaversa, bu tog'larda joylashgan kurikxonalarni turistlar bilan sayoxat kilish ularga uzgacha zavk – shavk bagishlaydi.

Tog' turizmini rivojlantirishdagi yana bir omil kish mavsumida maxalliy axolii va chet eldan kelayotgan mexmonlar uchun tog'larda kor ustida changida uchush uchun sharoitlarni tashkil etish, bu soxa xam umuman yulga kuyilmagan desa buladi. Axir kish mavsumida turistlardan eng kup daromad keltiruvchi soxa,

aynan kor ustida uchish. Bu imkoniyat vodiyning kurgina, tumanlarida mavjud.

Fargona viloyatining Sux, SHoximardon va Pop tumani CHotkol – Kurama tog tizmalaridan okib tushadigan daryolarda «Raftingni» yulga kuyish xam bahzi ekstrim turizmga kizikadigan turistlarni shu xududga jalb etish mumkin.

Ekoturizmni yana bir kurinishi «Kruiz» ni rivojlantirish uchun vodiyy tabiatida yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Bunday imkoniyatlar Namangant viloyatining Pop tumani dasht – chul mintakalarida, Fargona viloyatidagi «Yazyovon» chullarida, Andijon viloyati Ulugnor tumanidagi chul xududlarida mavjud bulib, bu chullarda ekstrim turizmni yulga kuyish xamda chul landshaftda zamonaviy «Jee» avtomashinalarida sayoxat kilish turistlarda uzgacha kizikish uygotadi.

Vodiydagi Andijon, Varzik, Karkidon, CHodak kabi suv omborlar yokalarida xam turli dam olish infrastrukturasini yaratish, mintaka tabiatidagi kam uchraydigan tabiy bohektlra, xususan, gorlar, turli kurinishdagi toshlar daraxtlar, shu kabi manzaralarni ekoturistik obhekt sifatida olib, bu obehktlarga turistlarni kelishini tahminlash vash u orkali daromad olish mumkin.

ushbu ekoturistik omillar, turizmni tabiatda mavjud imkoniyatlardan foydalangan xolda xamda uzok boy tarix, anhanalari va madaniyatiga ega bulgan vodiyy xalkining kundalik faoliyatini maxalliy va xorijiy turistlarga namoyish kilib daromad olish va xalkimiz madaniyatini butun dunyoga tarkatish imkonini beradi.

O’rta Osiyo tog’lari etagidagi cho’l va chala cho’l qirlar adirlar deb ataladi. Ular uchlamchi va to’rtlamchi davrlarning tog’ jinslaridan tashkil topgan. Adirlar Farg’ona, Hisor, Surxondaryo vodiylarida ko’proq konglomerat va chaqir toshlardan iborat bo’lib, bahzi joylarda lyoss (sog’ tuproq) bilan qoplangan. Adirlar tarkib topishi uchun quyidagilar bo’lishi kerak:

- muayyan geografik muhit;
- tarkib topgan davri va yoshiga bog’liq tog’ jinslari;
- relefnings morfologik jihatdan xilma-xilligi.

Muayyan geografik muhit. Adirlarning atrofdagi hududlardan farq qiladigan o’ziga xos xususiyatlari mavjud bo’lib, ular tog’lar oldidagi va tog’lar

orasidagi tektonik botiqlarda joylashgan bo'ladi. Ularni tog'dan boshlanadigan daryolar, yozda qurib qoladigan soylar kesib o'tadi. Adir yuzasida suvning erozion ishi natijalari yaqqol ko'rinib turadi. Adirlar yuzasi tog' etagidan tekislikka tomon nishab bo'ladi. Bulardan tashqari, adirlar hosil bo'lishida iqlim sharoiti ham ancha tahsir ko'rsatadi. Adirlarda cho'l, chala cho'l, dasht va kengbargli o'rmonlar zonasiga xos iqlim xususiyatlari joyning geografik o'rni va ekspozitsiyasiga bog'liq holda birin-ketin o'zgaradi. Joyning geografik o'rniga bog'liq holda quyidagi iqlim xususiyatlari mavjud:

- havo massalari toqqa kelib urilib, to'planib, asta-sekin tog' yonbag'ir bo'ylab ko'tariladi;
- havo massasi toqqa kelib urilib, to'planishi natijasida uning fizik ko'rsatkichlari, ayniqsa, nisbiy va mutloq namligi ortadi, harorati pasayadi, bug'lanish kamayadi, yog'in-sochin fasllariga bog'liq holda o'zgaradi;
- yog'in miqdoriga nisbatan (250-600mm) bug'lanish (1200-1500mm) bir necha baravar ko'p bo'ladi;
- yog'in turlari mavsumiy xarakterga ega (qishda qor, qirov va tuman ko'rinishda) bo'ladi;
- bulutlar pasayib, tuproqlar tarkibidagi namlik ortadi;
- er yuzasidagi kimyoviy, biologik, geografik, geologik jarayonlarning toqqa tomon faollashishi yuz beradi;
- tog' vodiy shamoli, yahni kunduzi toqqa esadigan havo massasi tarkib topadi;
- yozda yog'inlarning kamligi, issiq kunlarning uzoq davom etishi bug'lanishning yuqori bo'lishiga olib keladi;
- adirning o'ziga xos xususiyati tasirida o't o'simliklari qurib qoladi, tuproqning yuza qavatida nam bo'lmaydi va tuproq yuzasi yoriladi;
- tog' vodiy shamollarining kunduzgi faoliyati tufayli chang-to'zon ko'tariladi;
- cho'ldan kelayotgan shamol tarkibidagi changlarning asosiy qismi shu hududda akkumulyatsiya bo'ladi;

- relief sharoiti va o'simliklar qoplami ularni eroziyadan saqlaydi.

Adirning tarkib topgan davri va yoshi. Adirlar asosan Toshkent kompleksiga qarashli tsiklii terrasalarni hosil qiladi, bahzi joylarda Nanay terrasasi usti ham adir ko'rinishiga egadir. G'arbiy Tyanshandagi Toshkent kompleksi tog' oldi tekisliklarida 2 ta terrasa yuzasini, vodiylarda esa 4 ta (Qizilsuv Q_2^4 , Sijjak Q_2^3 , Ugamusti Q^2 va Ugamusti) terrasa yuzalarini tashkil qiladi. Bu terrasalar adir ko'rinishida yuza hosil qilib, qayirlardan ma'lum balandlikda yotadi. Ular genetik jihatdan akkumulyativ-erozion ko'rinishda bo'lib, qadimgi yuzalar ichida keyingi yuzalar joylashgan bo'lib, ular bir-biridan yuza va o'tkinchi yonbag'ir usti bilan ajraladi.

Har bir terrasa litologik jihatdan ikki xil, tagidagi tosh-shag'al-qum-gil yotqiziqlarini ustki lyoss tog' jinslari ko'rpa holda qoplab turadi. Ko'p yerlarda - terrasaning chekka qismida, pastki qavatning yuzasi yuvilgan bo'lib, tsokol terrasalardan iborat, to'g'ridan-to'g'ri pastki qizil rangdagi neogen tog' jinslari ustini lyoss yotqiziqlari ko'rpa holda qoplab yotadi (Orkutsoydagi surilmalardan yoki Parkent yakindagi Alom tizmasining shimoliy yonbag'ridagi SHaq-shaqxona surilmasida).

Toshkent kompleksiga qarashli terrasalar yuzasidagi adir relefining yoshi 500 ming - 1 mln. yil deb belgilangan, keyingi davrlarda qulay geografik muhit tahsirida adir yuzasida lyoss tog' jinslari to'planmokda, bunda pedolit tuproqlar hosil bo'lishidagi nurash jarayoni ham faol yordam bermoqda. Adir ustini qoplagan lyoss tog' jinslarining kelib chiqishi to'g'risida turli fikrlar (daryo olib kelgan yotqiziqlar, yonbag'irdan yuvilgan mahsulotlar xamda shamol olib kelgan changlar) mavjud. Lyoss tog' jinslarining hosil bo'lishi 2 ta muhim omil bilan bog'lanadi.

Birinchiidan, uning hosil bo'lishida yer yuzasini uzoq vaqt qor qoplashi (adirlarda 2-5 oy) va yer betida chang zarrachalarining to'planishi (400 ming yil davomida), relief yuzasining xarakteri (qiyaligi, parchalanganligi) lyossning qalinligini belgilaydi. Binobarin, adirlar yuzalari hosil bo'layotgan to'rtlamchi davrda (pleystotsenda) Yevropa qithasi muz ostida bo'lgan. Muzning eng janubiy

chegarasi hozirgi Dnepropetrovsk shahri hududlari bo'lgan. Muz ustida yozda ham yuqori bosim markazi bo'lgan va muzning ustida hosil bo'lgan sovuq havo qish va yozda atrofga yoyilib, haroratni pasaytirgan. Muz egallagan hududlarning janubiy qismida hozirgi vaqtda g'arbdan sharqqa esuvchi shamollar (Voeykov o'qi) o'tadi, u yozda Atlantika okeanidan juda ko'p yog'in-sochin olib keladi.

Katta hudud (14 mln km) muz bilan qoplanganligi uchun yuqori bosim markazi Voeykov o'qini 20° janubga surgan hamda qishda, yozda o'rtacha oylik haroratni 8-15° pasaytirgan va janubiy o'lkalar g'arbiy shamollar olib kelayotgan nam bilan (yozda yomg'ir yog'maydigan O'rta Osiyoni ham) tahminlagan.

G'arbdan kelayotgan nam sovuq havo massalari tahsirida adirlar usti hozir 20-35 kunlik qor qoplamiga ega qismida u vaqtlarda 3-6 oy davom etgan. Qorning yuzasi chang to'plovchi maydon bo'lib xizmat qilgan. Qorning adir betida uzoq turishi, yozda yog'in-sochinlarning ko'pligi yer betini o'simliklar bilan qalin qoplanishiga olib kelgan. Qor yuzasiga o'xshab o'simliklar ham chang to'plovchi omilga aylangan.

Ikkinchidan, relef yuzasining xarakteri va yoshi lyossning qalinligini belgilaydi. O'zan oldida qayirning ustida tosh-shag'al uyumi tepalik hosil qilib oqim bo'ylab pasayib boradi, shu tepalik suv toshgan vaqtda daryo suvini ikkiga bo'lib turadi, suvning katta qismi yuqori qayir yoki 1-qayir usti terrasasi oldidan oqib o'tib, ancha chuqur o'zan hosil qiladi. Suv bosmagan vaqtda bu chuqurlik yaqqol ko'rinib turadi. Qayirning orqa tomonida suv aylanma hosil qilsa, bahzi joylarda fatsial holda qum, bahzi yerlarda gil to'plangan bo'ladi. Yuqoridagidan ko'rinib turibdiki, qayirda juda katta mayda tosh-shag'al fatsiyasi bilan pastki qismida gilli va qumli fatsiyalar hosil bo'ladi.

Suv ko'payganda qayir oldi chuqurligi 2-qayir usti terrasasidan yuvilgan dellyuvial yotqiziqlar bilan to'ladi. 1-qayir usti terrasasini endi hech qachon suv bosmaydi, terrasaning yoshiga qarab yer betida (shag'al-tosh ustidagi) to'planadigan chang zarrachalarining qalinligi oshadi. Bu yuzada faol nurash mahsuloti pedolit hosil bo'ladi. Terrasalar yoshiga qarab, hamda tuproq hosil bo'lish jarayoniga bog'liq holda tog' jinslarining mexanik tarkibi qum-gil, gil-

qumga yoki qumoq tuproqda, so'ngra lyossimon tog' jinsiga va lyossga, adir esa toshli lyossga aylanadi. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, adir yuzasidagi tog' jinslarining hosil bo'lishiga eng qulay tabiiy sharoit Toshkent kompleksiga qarashli terrasalar hosil bo'lgan vaqtga, ya'ni qorli, sovuq davrga to'g'ri keladi. Bu davrda qish sovuq, qorli va yer yuzasining muzlashi uzoq davom etganligi bois, lyoss tog' jinsi muzlab, so'ng erish jarayonida uning mexanik tarkibi hozirgi ko'rinishga kelgan.

1.2. Ekoturizmni ilmiy asoslari

Hozirgi kunda ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi, balki fanlar tizimiga aylanib ketdi. Ekoturizm ana shu tizimda o'z o'rniga ega sohadir. 1990 yildan buyon ekoturizmga rasmiy turizm industriyasi statusi berilib, har yili xalqaro "Annual World Congress on Adventure Travel & Ecotourism" simpozium o'tkazish va nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzish huquqi berildi. 2002 yil Janubiy Afrika Respublikasining Yoxannesburg shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon Sammitida qabul qilingan muhim xalqaro hujjatlardan biri «Barqaror rivojlanish Butunjahon Sammiti (BRBS) qarorlarini bajarish rejasi»ning IV bo'lim 24-26 moddalarida milliy davlat chegarasida va uning tashqarisida atrof muhitni turizm orqali muhofaza qilish masalasi ko'tarildi. Undan tashqari "Xalqaro ekoturizm yili", "Xalqaro madaniy meros yili"ga bag'ishlangan yuzlab uchrashuv va anjumanlarda (2002 yil), Kvebek deklaratsiyasi va Butunjahon turizm tashkilotining «Global turizm etika kodeksi»da turizmning eng ommalashayotgan tarmog'i bo'lgan ekoturizmni rag'batlantirish zarurligi ta'kidlanib o'tildi hamda tegishli qarorlar qabul qilindi.

Chunki, ekologik muammolar yechimini topishning yana bir yangi jihati ekologik turizmni rivojlantirish orqali aholining ekologik ong va madaniyatini ko'tarishdir. Tabiiy muhit insonlarning nafaqat tomosha arenasi, balki yashash makoni ekanligini anglagan kishi atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ehtiyotkorona foydalanish, buzilganlarini qayta tiklash o'zi va bugungi hamda kelajak avlodlar uchun qanchalik zarur ekanligini biladi va ongli ravishda unga

sarf-harajatlar qiladi. Tabiat zaminida ekologik turizm va uning boshqa turdagi turizm bilan farqi nimada ekanligini ajratib olish lozim bo'ladi.

Turizm terminini birinchi bo'lib 1830 yilda V.Jekmo fanga olib kirgan. Avvalo turizm so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, u frantsuz tilida *tourisme* - sayohat qilish, dam olish bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma'rifiy vazifalarni bajarish degan ma'noni anglatadi².

Ekoturizm – insonlarning dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadda hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, atrof tabiatga qiladigan sayohatlari.

Ko'pgina tadqiqotchilar (R.Davidov, 1990; A.V.Drozdo, 1999; T.V. Bochkareva, 2003; V.V.Xrabovchenko, 2003; L.I.Egorenko, 2003; N.Tuxliev, A.Taksanov, 2001, A.Taksanov, 2005; N.Tuxliev, T.Abdullayeva, 2006, A.Nig'matov, N.Shomuratova, 2004, 2005, 2006, 2007 va boshqalar) ekoturizmni turlicha talqin qiladilar. "*Avstraliyaning Milliy ekoturizm Strategiyasi*"da ekoturizmni tabiatga yo'naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Ekologik barqarorlik qoidalaridan kelib chiqqan tarzda u o'z ichiga ekologik ta'lim va tarbiyani qamrab oladi.

Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (TMQXI) ekoturizmni - atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda "yumshoq" ta'sir ko'rsatish yo'li bilan madaniy va tabiiy me'rosni o'rganish hamda zavqlanish, nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik ma'suliyatli sayohat, deb tushuntiradi.

Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi ta'rifiga yaqin tushunchani *AQSh Ekoturizm jamiyati* berib, ekoturizm - mahalliy aholi va tabiatni muhofaza qilishga ko'maklashuvchi tabiiy hududlarga ma'suliyatli sayohat, deb ta'riflaydi.

Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi ekoturizmni lo'nda qilib "atrof muhitni muhofaza qiluvchi tabiiy turizmdir" deydi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ekoturizm tushunchalarida, bizning

2 Краткий словарь иностранных слов.- М.: "Изд. Иностранных и национальных словарей", 1958.- С.404.

fikrimizcha, quyidagi ekoturistik shartlar ifodalanmay yoki to'lig'icha ta'riflanmay qolingan:

- ekoturizm bilan tabiatga qilinadigan turizm turi va vazifalari aralashtirib yuborilgan;
- ekologik inqirozli hududlar ham ekoturistik ob'ekt bo'lishi mumkinligi yaqqol ko'rsatilmagan;
- ekoturistlarning asosiy maqsadlari, doimo ham tabiatni muhofaza qilish bo'lmaydi, lekin ularni atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi va undan tushgan foydaning aksariyat qismini o'sha ekoturistik ob'ektni muhofaza qilishga yo'naltirishi lozim bo'ladi. Aks holda ekoturizmni tabiatga qilinadigan turizmdan farqi qolmaydi.
- buzilgan geografik komplekslari va ularning komponentlarini tiklash masalasi qo'yilmagan yoki u holat yetarlicha ifodalanmagan.

Ekoturizmning umumiy tushunchasidan kelib chiqqan tarzda, biz uning mazmunidagi quyidagi holatlarga o'z e'tiborimizni qaratishimizga to'g'ri keladi. Birinchidan, *ekoturizm sub'ekti yoki uning qatnashchilari bo'lib jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga binoan *jismoniy* shaxslarga-muayyan davlat fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan insonlar kiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida esa barcha fuqarolar, qanday faoliyat bilan shug'ullanmasinlar, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar, deyilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda ekologik turizm bilan band bo'lgan jismoniy shaxslar atrof tabiiy muhitga yuridik shaxslarga nisbatan 3-4 barobar ko'proq zarar keltirar ekanlar. *Yuridik shaxs* - xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida ekologik turizm bilan shug'ullanish imkoniyatini beruvchi mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob bera oladigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, qo'yilgan majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot, korxonalar, muassasalardir.

Yuridik shaxslar, jismoniy shaxslardan farqli, yuridik maqomiga ko'ra uyushgan, maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan, balans va smetasida turizmga oid tegishli harajatlarni ko'zda tutgan, salbiy ekologik oqibatlariga o'zining mol- mulki bilan javob bera oladigan yoki da'vogar bo'la oladigan shaxs hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, davlat, nodavlat va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan boshqarish va tartibga solish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadigan ekologik turizm qatnashchilari bo'lib yuridik shaxslar hisoblanadi. Shuning uchun ham kelajakda maxsus tayyorgarlikka va javobgarlikka ega bo'lgan ekologik yo'nalishdagi turistik tashkilotlarni rivojlantirish xalqaro hamjamiyat, davlat va jamiyatning asosiy vazifalaridan bo'lib qoladi.

O'zbekistonda xalqaro Ekosan jamg'armasi qoshida «Ekosan-tur» markazi 2002-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. U barcha davlat va nodavlat organlari bilan birgalikda Respublikamizning barcha go'zal tabiat maskanlariga sayohatlarni uyushtirish, fuqarolarimizni o'zga yurt tabiati bilan tanishtirishni maqsad qilib qo'ygan. "Ekosan-tur" xalqaro markazi "Ekoturizm va barqaror rivojlanish" mavzusida davlat idoralari, shaxsiy turistik firmalar va kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari ishtirokida 2005 yil mart va 2006 yil iyul oylarida Toshkent shahrida xalqaro konferensiya hamda ommaviy bayramlarni o'tkazdi. Konferensiyada O'zbekistonning barcha tabiiy geografik o'lkalarida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va ularni tegishli davlat organlari hamda turistik kompaniyalarga mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun yo'naltirildi.

Ekoturizm o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra shaxslarning turg'un yashab turgan joylaridan ma'lum bir maqsadlarni ko'zlagan holda o'zga ob'ektga (joy va makonga) qilgan sayohatlari. Bu o'rinda ikki masalaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq. Avvalambor, sayohatchi va sayyohlik tushunchasiga. Kishilarning qanday harakatlari aynan sayohlikka kiradi (O'zbekiston Milliy ensklopediyasida uni turizm deya e'tirof etilgan).

Kishi sayohatchi bo'lishi uchun doimiy yashash joyidan pul to'lanadigan

faoliyat bilan shug'ullanmagan holda 24 soatdan 6 oygacha bo'lgan uzluksiz muddatga vaqtinchalik yashash joyga (mamlakatga) borib kelishi yoki u yerda kamida bir tunni o'tkazishi zarur__.

Ekologik sayyohlik - zamonaviy turizmning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, oxirgi o'n yillikda butun dunyoda keng miqyosda rivojlanmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda__u sayyohlik bozorining 10-20 % qamrab olgan, o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2-3 marotaba yuqori ekan. Shuningdek, ekoturizm atrof muhit muhofazasining samarali vositasi va barqaror rivojlanishning mustahkam «kaliti»dir. Ekoturizm birinchi navbatda tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishga, uning go'zalligini va salbiy hodisalarini his etishga, tabiat qo'ynida faol dam olish va geografik komplekslarni nisbatan barqarorligini saqlab qolishga qaratilgandir.

Ekoturistik faoliyatning turli jihatlariga oid bo'lgan tadqiqot ishlari Rossiya Federatsiyasida oxirgi 12-15 yillar ichida amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda Rossiya xalqaro turizm akademiyasining ekologik turizm kafedrasini, shuningdek, Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi hamda "Qo'riqxonalar" ekosentri faolligi ko'rsatmoqdalar. Jahonda ekoturizm sohasida yaqqol ajralib turgan 4 maktabni ko'rsatish mumkin. Bularga Amerika, Avstraliya, Germaniya hamda Meksika maktablari. Ularning ekoturistik faoliyatga bo'lgan munosabatlari o'zining turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

Farg'ona vodiysida ekoturizm yangi soha bo'lganligi sababli unga oid tadqiqotlar boshqa o'lkalardan ortda qolmoqda. Uning iqtisodiy jihatlari N.Tuxliyev (2001), A.Taksanov (2005), T.Abdullayeva (2006), B.Kamalov (2018) va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan. 2007 yil «O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Kontsepsiyasi»ni ishlab chiqilishi bu sohada olg'a bosilgan bir qadam bo'ldi. Ushbu Kontsepsiyada ekoturizmning O'zbekistondagi ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi salohiyati, maqsadi, tashkiliy-huquqiy masalalari, uni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur bo'lgan dastlabki qadamlar, yangi sohaning yaqin kelajakdagi istiqbollari, hamda ekologik ta'lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bo'yicha omillar yoritib berildi.

Mazkur kontsepsiyaning “Ekoturistik fan, ta’lim, tarbiya va targ’ibot” bandida - Ekoturizmga oid ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish uchun fundamental, amaliy va innovazion loyihalar bo’yicha davlat grantlarini ajratish hamda tanlovlarni o’tkazish; Ekoturizmni rivojlantirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi qoshida Ilmiy - amaliy Markazni tashkil etish; Ekoturizm yo’nalishidagi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining Ixtisoslashgan Kengashlari tarkibida maxsus shifrlarni (masalan: “Ekoturistik boshqaruv va biznes”, “Ekoturizm iqtisodiyoti” kabi mutaxassisliklarni) tarkib toptirish masalalarini ko’rib chiqish; “Ekoturistik xizmat”, “Ekoturistik marketing va menejment”, “Ekoturizm gidi” kabi mutaxassisliklar bo’yicha o’rta bo’g’indagi kasb-hunar ta’limi, bakalavr, magistr, aspirantura va doktorantura, ya’ni tegishli yo’nalishdagi kadrlar tayyorlashning uzviyligini ta’minlash; Hozirgi kunda ekoturizm Farg’ona vodiysida ham ilmiy yo’nalish, o’quv kursi va iqtisodiyot tarmog’i sifatida rivojlanib hamda shakllanib bormoqda.

Farg’ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo’lgan go’zal va takrorlanmas tabiati, betakror tabiat manzaralari, turli xil o’simlik va hayvonot dunyosi, noyob tabiiy yodgorliklari bilan mashhurdir. Vodiyning So’x, Farg’ona va Beshariq tumanlari, Shohimardon va Markaziy Farg’onadagi qum landshaft ekzotikasi, Sho’rsuv salomatlikni qayta tiklovchi maskanlar (Mingbuloq tumanida), butun dunyoga mashhur tarixiy-arxeologik yodgorliklardan Axsikent (To’raqo’rg’on tumanida), Yakkatut (Uychi tumanida), Munchoqtepa (Pop tumanida), Buonomozor (bronza davriga oid Chust manzilgohi), Mug’tepa va Mug’qalg’a (qadimgi Koson tarixi), Mulla Bozor Oxund majmuasi, Mulla qirg’iz madrasi (Namangan shaxar), tabiiy ekoturistik obyektlardan Podshoota daryo havzasida joylashgan tog’ oldi manzaralari (Yangiqo’rg’on tumanida), Kosonsoy tumanidagi dam olish sihatgohlari, Chodaksoy hududidagi o’ziga xos betakror tabiat mo’jizalari (Pop tumanida), Baliqko’l majmuasi (Chortoq tumanida), Yangi qurilayotgan Angren-Pop temir yo’li infratuzilmasidagi manzara va 19,5km tunnelg’ (Pop tumani Qamchiq dovoni), rekreatsion boyliklardan Chortoq,

Gulshan, Kosonsoy, Shahand, Chodak, Zilol suv, Ko'ksaroy kabi sihatgohlar va sayyohatgohlar shular jumlasidandir. Albatta, bunda ajdodlarimizdan meros qolgan osori-atiqalar, o'lkamizning ajoyib tabiati, qolaversa, mehmondo'st va tanti xalqimiz, istiqloq yillarida erishilgan katta muvaffaqiyatlar ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Farg'ona vodiysi ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay okrug hisoblanadi. Chunki, ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ekoturizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali va maqsadli foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda, dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev³.

Ekoturizmning yana bir muhim ahamiyati shundaki, u kishilarga turli ma'lumotlarni berish orqali kishilarni bilimli va mahnaviyatli bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ekoturizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda ekoturistik fan, tahlil, tarbiya va targ'ibotni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi. Chunki aholida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirmasdan turib boshqa ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun, ekoturizmni rivojlantirish orqali ilmiy, estetik, vatanparvarlik, sog'lomlashtirish, iqtisodiy va boshqa turli maqsadlarda tabiatdan foydalanishning ahamiyati to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Ekoturizm orqali chet ellik mehmonlar O'zbekistonning boy va betakror tabiati haqidagi tassavurga ega bo'lsalar, O'zbekiston fuqarolari o'z Vatani bilan yaqindan tanishadilar, ularda ona yurtiga nisbatan milliy iftixor hamda g'urur tuyg'usi shakllanadi.

1.3. Ekoturizmning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti

Umum e'tirof etilishicha ekologiyaning maqsadi – organizmlar yashaydigan muhitni ularning bexatar yashashi va evolyutsion tarzda rivojlanishini

³ Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистан Республикасини янада ривожлантириш буйича харакатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони

saqlab qolish, yahni ekologik xavfsizlikni taminlash. Ushbu maqsad ekologiyaning barcha tarmoqlari orqali turli xil vositalar, usullar va yo'llar vositasida tahminlanadi. Shuning uchun ko'pgina xalqaro, regional, milliy va mahalliy miqyosda o'tkazilayotgan anjuman, tadbir, reja va dasturlarda ekologik vazifalardan biri etib ekoturizmni rivojlantirish masalalari olinmoqda.

Ekoturizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni tahminlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishlarda oqilona foydalanish, uni qayta tiklash va muhofaza qilish.. «Bugun, - degan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - XXI asr bo'sag'asida ekologik xavfsizlik, inson bilan tabiat munosabatlarini to'g'ri yo'lga solish muammolari har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Zero, bu muammoning yechilishi barcha xalqlarning manfaatlariga daxldordir, jahon tsivilizatsiyasining buguni va kelajagi ko'p jihatdan shunga bog'liqdir».

Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun ekologik jihatdan rivojlangan davlatlar, xalqaro tashkilotlar va milliy qonunchilik manbalari quyidagi vazifalarni bajarishni talab etadi:

- ekoturistik talim va amaliyotining nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;
- ekoturizm yo'nalishi bo'yicha talim va tarbiyani yo'lga qo'yish;
- ekoturizm bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;
- ekoturizm obyektlarning kadastrini o'tkazish va ularni xar tomonlama baholash;
- ekoturizm monitoringini yuritish va istiqbolini belgilashni yo'lga qo'yish;
- milliy davlat hududini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirib chiqish;
- ekoturizm bilan shug'ullanuvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan maxsus turdagi subhektlar faloiyatini yo'lga qo'yish va ularni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini belgilash;
- davlatlarning va xalqaro hamjamiyatning ekoturizmga oid taktik reja va

strategik dasturlarini ishlab chiqish va ularga yuridik maqom berish;

- ekoturizmga oid ijobiy harakatlarni rag'batlantiruvchi omillarni yaratish;
- huquqbuzarlarga nisbatan iqtisodiy javobgarlik sanksiyalarini kuchaytirish va h.k.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish insonlarning ekologik huquqlarini taminlab berishning eng muqobil yo'llaridan biri hisoblanadi. Shuni tan olish kerakki, hozirda O'zbekistonda suv va yerning taqchilligi, ularni asrab avaylash haqidagi matbuotda, ilmiy amaliy tadbirlarda, sohaga doir adabiyotlarda aytilayotgan fikrlar va televidenie orqali namoyish etilayotgan ko'rsatuvlar xar doim ham kutilgan natijalarga olib kelmayapti.

Shuning uchun bo'lsa kerak dono xalqimiz «Yuz eshitgandan ko'ra bir bora ko'rgan avzal» deydi. Ekoturizm orqali insonlar o'zi va o'zgalar yashab kelayotgan atrof tabiatni ko'rib solishtiradi, xulosalaydi va tegishli mustaqil qarorlar qabul qiladilar. Ularni atrofdagilar bilan muhokama qiladilar, lo'nda qilib aytganda «birini ko'rib shukur qiladilar, birini ko'rib fikr qiladilar».

Ekologik turizm ham aynan fikrlaydigan va shukronalar bildiradigan ekologik ongli va madaniyatli kishilarni tarbiyalashga, turizmdan kelgan foydani esa buzilayotgan yoki buzilgan tabiiy obyektlarni qayta tiklash uchun sarflashga yo'naltiruvchi juda ulkan imkoniyatlarga ega. Faqatgina ushbu harakatlar ilmiy asoslangan va amalda tekshirilib ko'rilgan tavsiyalarga tayangan holda amalga oshirilishi, yahni yangi fan sohasi sifatida aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

M.I.Egorenkovning (2003) fikricha landshaft mintaqasi ekotizimlari – sovuq arktik sahrolar va tundra, mo'htadil iqlim mintaqalari, dasht va preriyalar, cho'l va sahrolar, savanna va siyrak o'rmonlar, nam tropik o'rmonlar, okean va dengizlar hamda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizm obyekti bo'la oladi. Ekoturizm obyektiga nisbatan bildirilgan ushbu tahrif juda umumlashtirilgan.

Chunki, birinchidan, tabiiy geografik mintaqalar ekotizimlar emas, balki tabiiy geografik tasniflanishdagi taksonomik birliklar yoki geotizimlardir. Ikkinchidan, ekotizim ekologiyaning, geomajmua yoki geotizim esa geoekologiyaning obekti bo'lib hisoblanadi. Uchinchidan, mintaqadan pastki

taksonomik birliklar ham ekoturistik obhakt bo'la oladi (A.Nigmatov, N.SHomurotova, 2005, 2006).

Umuman olganda, *ekoturizmning obekti* bo'lishi uchun har bir sayyohlik obhakti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- organizmlar muayyan yashash makoni yoki joyi bo'lishi, yahni biosfera doirasidan chiqib ketmasligi;
- tabiiy kelib chiqishi bo'yicha antropogen o'zgargan yoki o'zgarmaganligi;
- tabiat qo'ynida sayohlarning 24 soatdan ortiq bo'lish yoki tunab qolish imkoniyatining mavjudligi;
- ekotizimlardagi modda va energiya almashuvida qatnashayotgan bo'lishi.

Shunday qilib, ekoturizm obekti – ekologik maqsadda sayyohlik uyushtirilishi imkoniyatiga ega bo'lgan tabiat komponent(unsur)lari, tabiiy tizim(sistema)lar, tabiat majmua(kompleks)lari. U inson ongiga bog'liq bo'lmagan tarzda kelib chiqqan, rivojlanadi va shakllanadi.

Lekin, tabiat fan-texnika yutuqlari bilan qurollangan inson tomonidan o'zgartirilishi, yani madaniylashishi yoki yomonlashuvi mumkin. Afsuski, keyingi ikki asr davomida ekoturizm obekti yomon tomonga qarab yuz tutmoqda.

XX asrning 80-yillarida Xalqaro yoshlar turizm byurosi “Sputnik” *ekoturizm predmeti* - atrof muhitga minimal darajada tasir etish va sayyohning ekologik madaniyatini shakllantirish, deb hisoblagan. Bunday amaliy faoliyat, tadqiqot emas predmet sifatida qaralgan. G.S.Gujin, M.Yu.Belikov, Ye.V. Klimenko ekoturizmni tadqiqot predmetini atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy bilish jarayoni deb bilganlar.

Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) Atrof muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholining farovonligini saqlash ekoturizm predmeti bo'la oladi deydi. Kanada atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha Maslahat kengashi tabiatni o'rganish va mahalliy aholining hohish-irodasini inobatga oluvchi ekoturizmni saqlashga qaratilgan tadqiqot deydi. Ushbu fikrni V.V.Xrabavchenko ham mahqullaydi. M.I.Egorenko ekoturizm predmetiga ekoturistik obhaktlarga ekologik talim, targ'ibot, tarbiya masalasiga qaratilgan

amaliy va ilmiy faoliyat deb qaraydi. U ekoturizmni ko'proq o'quv predmeti sifatida tadqiq qilgan.

S.R.Erdavletov ekoturizmni geograf tomonidan tadqiq qilinadigan bo'lsa, ularning bilish predmeti ko'proq makonda yuz berayotgan turistik hodisa, voqea va jarayonlarga o'z etiborlarini qaratishlari lozim, deya ta'kidlaydi. Ekoturizm predmetida, u qanday turlarga ajratilmasin, sayyohlikning ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy, texnik tomonlarini ko'proq tadqiq qilish kerak deydi.

Ekoturizm geografiyasi real tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy holatni inobatga olgan tarzda sayyohlik harakatini boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqishi lozim degan dunyoqarashga biz geograf sifatida qo'shilma olmaymiz, chunki geografiya tadqiqot obektiga nisbatan nafaqat makon, balki davriy va majmualiy yondashuvlarni ham tadqiqot predmeti qilib oladi (A.Nigmatov, 2006).

Ulardan tashqari turizm geografiyasi predmeti faqatgina ilmiy asosini emas, balki amaliy jihatlarini ham o'rganishi lozim. U nafaqat boshqaruv, balki baholash, monitoring olib borish, tartibga solish, bashoratlash kabi boshqaruvga yordam beruvchi bilish jarayonini ham qamrab olsa foydadan holi bo'lmaydi. Chunki ekologiya, geografiya singari davriylik xususiyatlarini o'z tadqiqot predmetiga kiritadi (D.L.Armand, 1973). Ekoturizm ekologik ijtimoiy munosabatlardan biri ekan, ekoturizm predmetida turistlarning uch faoliyat turini tadqiq qilishi va ularga amaliy ko'rsatmalar berishi lozim:

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- buzilgan tabiat majmualari va tizimlarini qayta tiklash.

Bu uch tadqiqot predmeti bir maqsadni, ya'ni global, regional, milliy va mahalliy miqyosda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga e'tibor qaratishni talab etadi. Ushbu aksioma ekologiyaning barcha sog'alariga xos bo'lgan tadqiqot predmetidir. Aks holda ushbu inson faoliyati ekologik xarakterga ega bo'lmaydi.

1.4. Ekoturizmning rivojlanish tarixi

Ekoturizm qisqa muddatlarda rivojlanmoqda. Ekoturizm nuqtai nazaridan, u yangi turizm turi bo'lgani uchun ham, davriy bosqichlarga ajratish tajribasi hozirgacha ishlab chiqilmagan. Ekoturistik davriylash – ekoturizmning tarixiy rivojlanish bosqichlarini uning muayyan ko'rsatkichlariga ko'ra ajratish.. Ilmda va amaliyotda, odatda, muayyan bir fan yoki fanlar tizimi hamda amaliyot sohasining rivojlanish yoki shakllanish bosqichlarini ajratayotganda quyidagi ko'rsatkichlarga etibor beriladi:


- ilm tarmog'ining mustaqil fan yoki amaliyot tarmog'i sifatida etirof qilinganlik vaqti va uni jamoatchilik hamda ko'pchilik olimlar tomonidan qabul qilinish davri;
- fanning yangi bosqichga ko'tarilish davri;
- fanning fanlar tizimiga aylanish davri;
- fan yoki fanlar tizimning metodologik asoslarini qaytadan ko'rib chiqish davri;
- tegishli fan yo'nalishida sodir etilgan ilmiy-texnologik o'zgarishlar davri;
- fandagi kontseptual dunyoqarashlar o'zgargan davr va h.k.;

Turizm sohasidagi adabiyotlarning tahlili va yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlarni inobatga olib ilk bor ekoturizmning quyida keltirilgan bosqichlarni ajratish tavsiya etiladi:

I. XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davr – ekoturizmning mahalliy va milliy mustaqil turizm sohasi sifatida yuzaga kelish davri.

II. 1990 – 2000 yillar - turizmning regional miqyosda, ekoturizmning turizm industriyasi sifatida rivojlangan davri.

III. 2000 yildan keyingi bosqich-global miqyosda ekoturizmning rivojlanish davri (1-rasm).



1-rasm. Ekoturizmning rivojlanish bosqichlari

Xalqaro miqyosda rivojlanib borayotgan ekoturizm Farg’ona vodiysiga ham o’z tasirini o’tkazmoqda. 2001 yilda O’zbekiston, Qozog’iston va Qirg’iston respublikalari bilan birgalikda **TASIS** dasturi asosida “Farg’ona vodiysida biologik xilma-xillikni saqlash” loyihasi ishlab chiqildi.

Yagona ekologik davlatlararo tizimdagi noyob tog’ tabiatining xilma-xil va betakror landshaftlarini saqlab qolish maqsadida yagona xalqaro ekologik rezervat tashkil etishga qaror qilindi. Unda bir qator alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud va obyektlar bilan birga ekologik sayyohlik marshrutlarini ishlab chiqish uchun moddiy va moliyaviy resurslar ajratildi.

Hozirgi kunda yuzlab ekoturistik marshrutlar ushbu hududda ishlamoqda. 2004 yil 3 martda esa Toshkent shahrida “Ekoturizm va barqaror rivojlanish” xalqaro konferentsiyasi bo’lib o’tdi. Konferentsiyani xalqaro Ekosan jamg’armasi va uning qoshidagi ekologik turizm markazi “Ekosan-Tur” tashkil etdi.

Unda, O’rta Osiyoda mahalliy, milliy va regional miqyosda barqaror rivojlanish uchun ekoturizmni yuritish muammolari ko’rib chiqildi. 2005-2006 yillarda Farg’ona vodiysida ekoturizmga bag’ishlangan o’nlab uchrashuvlar, davra suhbatlari, bayram kechalari, anjumanlar bo’lib o’tdi. Ularda ekoturizmning manaviy, marifiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatining nechoqlik katta ahamiyati ochib berildi.

II-BOB. FARG’ONA VODIYSIDA EKOTURIZM HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

2.1. Ekoturizmni rivojlantirishning iqtisodiyotdagi ahamiyati

G’arb mamlakatlarida ekoturizmga iqtisodiy soha jihatidan qaraladi, chunki chet ellarda jadal sura'tlar bilan rivojlanib borayotgan ekoturizm iqtisodiy foyda keltiruvchi turizmning eng istiqbolli turlaridan biri hisoblanadi.

Mutaxassis ekspertlarining ta'kidlashlaricha, ekoturistlar ko'pincha o'rta yoki o'rtadan yuqori sarmoyaga ega bo'lgan, har tomonlama ta'minlangan sayohatchilardan iborat. Sayyoramizda inson oyog'i yetmagan yovvoyi tabiat juda kam qolganligi sababli, odatda bunday hududlarga sayohat qilish cheklangan, hamda ularga sayyohat qilish ham sezilarli darajada qimmat. Shu sababli, ekoturizmdan tushgan daromad turizmdan tushgan daromadlardan bir necha marotaba ko'pdir.

Hozirgi kunda ekoturizm turizm va ekskursiya qilish jahon kengashining (WTTC) va jahon turistik tashkiloti (WTO) ma'lumotlariga ko'ra, jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan turistik industriyalardan biri hisoblanadi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, hozirda turizm industriyasida ekoturizm tarmog'iga kiruvchi tabiiy va sarguzasht turizmi tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib

bormoqda. Masalan, Kanada davlatida yovvoyi tabiatga sayohat, turizmning umumiy hajmi ichki turizmdan tushgan daromadning 25 % ini tashkil etadi. Kanada hukumati, faqatgina ekoturizmdan tushgan soliq hisobidan har yili 1,7 mlrd. AQSH dollarida foyda oladi.

Bu esa, hukumat tomonidan yovvoyi tabiatni muhofaza qilish dasturiga ajratilgan mablag'dan (300 mln. dollar) 5 baravar ko'pdir. Demakki, ekoturizm tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga katta iqtisodiy hissa qo'shadi, hamda bunday tadbirlarni to'la-to'kis o'tkazishga katta moliyaviy ko'mak beradi.

BMT va JTT tashkilotlarining ma'lumotlari bo'yicha, oxirgi 20 yil ichida endi rivojlanib borayotgan mamlakatlarda ekoturistlar soni ko'payib va undan olinadigan daromadlar yildan-yilga o'sib bormoqda. Masalan, har yili ekoturizmdan Keniya - 1,4 mlrd. Nepal - 1,5 mlrd. AQSH dollarida daromad oladilar. Qayd etish lozimki, ushbu mamlakatlarning ekoturizmdan olgan daromadi davlat ichki yalpi mahsulotining 70-80 % iga teng. Keltirilgan ma'lumotlardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning iqtisodiy isbotlari ishlab chiqilmagan. Bu vaziyatning asosiy sababi - ekoturistlarning tashrifi haqida va qaysi ekoturizm resursiga tashrif qilganligi haqida statistik axborotlar jamlanmagan. Ikkinchidan, hozirgacha vodiyning tabiiy hududlari bo'yicha qaysi ekologik turizm resurslaridan foydalanish ro'yxati ham tuzilmagan.
2. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha "Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirish Kontsepsiyasi" qabul qilingan. Ushbu "Kontsepsiya" ning 1.4. bandida - ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari echimini topishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar sifatida qayd qilingan. Ular quyidagilar:
 - Ekoturizm ob'ektlarida aholini ish bilan ta' minlash, ijtimoiy muhofaza qilish muammolarini hal qilish;
 - Ekoturizm qadamjoylarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, turistik infratuzilmalarni hosil qilish;
 - Ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy - texnik,

axborot - tahliliy bazasini yaratish xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish;

- Ekoturizm maskanlarini elektr energiyasi va issiq suv bilan ta'minlash masqadida ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya qurilmalari yordamida foydalanishni keng yo'lga qo'yish.

Ekoturizmning faqat foyda keltiradigan soha deb hisoblash mumkin emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doiradaamalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga rioya qilinmasa tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlarigaolib kelishi tabiiy. Uning salbiy oqibat vanatijalari nimalardan iborat bo'lishi mumkin.

Eng avvalo, o'simliklar nobud bo'ladi, o'simliklar payxon qilinadi, yer o'piriladi va zichlashib ketadi, hayvonlar bezov talanadi, qochishga tushadi, bola ochishga xalaqit beriladi, ov natijasida yo'q qilinadi, ovqatlanish tarzi o'zgaradi, turlariayniydi, suvda yashaydigan hayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, suv o'simliklariga ziyon yetadi, oziq moddalarning yemirilishi va yo'qolishigaolib keladi (tog'li joylarda,o'rmon yong'ini xavfi), suvning ifloslanishi yuz beradi, noyob turlar kamayadi, hayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, qoyalar yemiriladi, tashqi qiyofa xunuklashadi, marjon qoyalar shikastlanadi,baliqlar turi kamayadi, suv havzalari qirg'oqlaridagi o'simliklar payxonbo'ladi, qirg'oqdagi tuproq o'piriladi, zichlashadi, o'simliklar nobud bo'ladi, tasodifan hayvonlar shikastlanadi, hayvonlar turmush tarzio'zgaradi. Demak, ekoturizm doimo davlat, jamoat tashkilotlari nazoratida bo'lishi, unga doir qonunchilikka og'ishmay amal qilishi lozim.

Turizmning global axloq kodeksida ta'kidlanishicha, "...turistik infrastruktura ob'ektlari va turistik faoliyat turlarini shunday rejalashtirish kerakki, ekosistemalar va biologik turli-tumanlikni tashkil qiluvchi tabiiy merosni himoya qilish ta'minlansin hamda yo'qolib ketish xavfi bo'lganfauna va flora turlari muhofaza qilinsin; turistik jarayonlarning ishtirokchilari ayniqsa, professional xodimlar o'zlarining faoliyatlarigaqo'yiladigan ayrim cheklashlar va me'yorlarga ko'nikishlari lozim. Bu gaplar asosan tabiiy parklar yoki qo'riqlanadigan

qo‘riqxonalar va alohida nozik joylardagi faoliyat turlariga tegishli”.

Ekoturizmning maqsadlaridan biri noyob faunani asrab-avaylash, kelgusi avlod uchun saqlashdan iborat. Yo‘qolib borayotgan hayvonturlari, qushlar, reptiliyalar, baliqlar, o‘simliklar va hatto, hashoratlarga bo‘lgan talab, tabiiyki, taklifning shakllanishigaolib keldi. Iqtisodiyotningyangi xufyona sohasi paydo bo‘ldi. Nafaqat an’anaviy soha, masalan, Afrika uchun karkidon shoxi, fil suyagi, sherlarning tishlari, balki “Qizilkitob”ga kiritilgan to‘tiqushlar, lochinlar, gekkonlar, ilonlar, tropikbaliqlar, shuningdek, o‘rgimchaklar, qo‘ng‘izlar, chayonlar ham kantrabanda ob’ektlari bo‘lib qoldi. Bularning hammasiga Yevropalik kolleksionerlarda ham, ba’zi Osiyo mamlakatlarining do‘kondorlarida ham talab kuchaydi.

Ekzotik tovarlarning narxi qora bozorda ancha yuqori: Angola pitoni 65 ming AQSh dollari, kamyob Afrika qo‘ng‘izi “kolofong” 15 ming dollar va hokazo. O‘rgimchaklar va tropik baliqlarning noyob turlari ham qimmatbaholanadi. Tabiiyki,bunday maqsaddagi sayohat hech bir mamlakatda ma’qullanmaydi va “turizm” ning bunday sohasi jinoiy qonunchilik bilan ta’qib qilinadi.Shunday qilib, tabiat turizmi va ekologik turizm noyob va yo‘qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish bilan uzviy bog‘liq. Chunki ularning ko‘pchiligi ekzotik hisoblanadi va ekoturizmlarning ob’ektlariga aylanadi. Bu gap faqat hayvon va o‘simliklargagina emas, balki umuman ekosistemalar va tabiiy komplekslarga ham taalluqli.

Boshqa tomondan, noto‘g‘ri rejalashtirish tufayli turistik “yuk” ning oshib ketishi, yovvoyi tabiat “sovg‘alari” ning o‘ziga xosligi va qimmatbaholigi ba’zi turlarningyo‘qolishi va tabiat omillarining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Hududlarning noyob turlari va ekosistemalarini mahalliy jamoalar uchunhayotiy resurs deb qarash mumkin, shuning uchun ularni muhofaza qilishmahalliy madaniyatni himoya qilish bilan uzviy bog‘liq.

2.2. Farg‘ona vodiysining turizmdagi ko‘rsatkichlari

Farg‘ona vodiysining har bir hududi nafaqat tabiiy iqlimi, betakror va go‘zal

tabiati balki boy tarixiy merosi, o'ziga xos udumlari, turmush tarzi, hatto turfa an'analari bilan bir-birini aslo takrorlamaydi. Shu bois ham bu yurtni ko'rmoq, uning havosidan nafas olmoq istagida dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurayotgan sayyohlar soni yil sayin ko'paymoqda. Xususan, turizm sohasidagi yuksak salohiyat, zamonaviy infratuzilmaga ega **Andijon, Namangan va Farg'ona** viloyatlarida mahalliy va xorijiy turistlarning qadami uzilmaydi.

Andijon viloyati. Shuningdek, vodiyni sharqiy qismida joylashgan viloyatda turizm sohasini rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda, xududlarni rivojlantirishda, joylarda yangi ish o'rinlarini yaratishda, aholi daromadlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda ushbu sohani jadal rivojlantirish, yurtimizga kelayotgan xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirish, ichki turizmni kengaytirish borasida keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyat sharoitida turizm faoliyatining salohiyatini oshirishda faol investitsiyalarni jalb etish, ilg'or innovatsion g'oya va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, hamda mavjud turistik resurslardan kompleks foydalanish, ya'ni tabiiy, sog'lomlashtirish, madaniy va tarixiy yodgorliklar, ijtimoiy-maishiy ob'ektlar majmui shular jumlasidandir. Ichki turizmni hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida mamlakatimizda fuqarolarni madaniy-tarixiy meros hamda tabiiy boyliklar bilan tanishtirishga xizmat qiladi.



Viloyatda “Kontinent-trevl”, “Sayohat”, “Andijonturist” kabi turistik

tashkilotlar faoliyat yuritmoqda hamda yurtimiz va xorijdagi sayyohlik tashkilotlari bilan hamkorlik qilmoqda. Sayyohlik korxonalari “Ipak yo‘lida turizm” xalqaro sayyohlik yarmarkasida doimiy ishtirok etib, viloyatning turistik imkoniyatlarini namoyish etmoqda. Xorijiy va yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan sayyohlik korxonalariga Andijonning qadim va boy tarixini o‘zida mujassam etgan go‘shalar, madaniy meros yodgorliklari, go‘zal va betakror tabiat qo‘ynida joylashgan so‘lim dam olish maskanlari haqida ma’lumotlar taqdim etishda ushbu yarmarkaning ahamiyati katta bo‘lmoqda.

Andijon viloyatida 2017 yil turizm sohasi bilan shug‘ullanuvchi 9 ta firma va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatgan. Xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 1831 kishini tashkil etdi. Yil davomida 1245 sayyohlik yo‘llanmalari 1135 mln so‘mga sotilgan.

2017 yilda sotilgan sayohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

Ko'rsatkichlar	Soni (birlik)	Qiymati (mln so'm)
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari	1245	1135
Ulardan bevosita aholiga	1245	1135
O'zbekiston xududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	1010	728
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	235	407
Ulardan MDH mamlakatlari bo'yicha	1	3

Turistik firma va tashkilotlarda 53 nafar xodimlar faoliyat ko‘rsatgan. Ularning 13 nafari oily, qolgan 40 nafari or‘ta maxsus ma’lumotga ega. Xodimlarni yil davomida sayyohlik sohasida o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar 3650 ming so‘mni tashkil etdi. Viloyat bo‘yicha mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari 18 tani tashkil etadi. Nomerlar (xonalar) soni 490 ta bo‘lib , joylar soni 861 taga teng. Ularga 39,2 ming nafar fuqarolar joylashtirilgan, ya’ni 33,6 ming nafar O‘zbekiston, 3,1 ming nafar MDH va 2,4

uzoq chet el fuqarolari.

Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan mazkur viloyat tarkibida 14 tuman va 11 shahar bo'lib, umumiy maydoni 4,2 ming km. kvadratdan iborat. Havosi mo'tadil. Yozda issiq, qishda sovuq. Ayni shu jihat yil davomida sayyohlik xizmatlarini taklif etish, sohaning yangi-yangi yo'nalishlarini o'zlashtirish imkonini beradi.



Hududda 370 dan ziyod madaniy meros ob'ektlari mavjud. Ularning har biri bamisoli o'tmishning o'qilmagan sahifasi. “Jom'e” va “Ahmadbek hoji mehmonxonasi” majmualari, “Qutayiba ibn Muslim”, “Shirmonbuloq”, “Imom ota” ziyoratgohlari Andijon tarixidan so'zlovchi maskanlar sifatida ko'pchilikning e'tiborini tortayotgan bo'lsa, “Mingtepa” yodgorligi, “Xontoq” va “Fozilmon ota” dam olish maskanlari don-i dunyoga ketgan. Bu erga hatto Fransiya, Yaponiya, Xitoy va qo'shni davlatlardan ko'plab xorijiy davlatlardan mutaxassislar tashrif buyurib, izlanishlar olib borishmoqda. Andijon shahrida esa “Bog'ishamol”, “Andijon”, “Andijon elita”, “Karvonsaroy”, “Afrosiyob”, “Hamkor” kabi 20 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatayapti.

Mamlakatimiz Prezidentining ko'plab sohaga oid Farmon va qarorlarida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, vdiyda turizm va turistik xizmatlar eksporti hajmini oshirishning manzilli chora-tadbirlar loyihasi ishlab chiqildi, — deydi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining Andijon viloyati bo'yicha vakolatli vakili Adhamjon Usmonov. — Unga muvofiq, sayyohlik ob'ektlarini rekonstruktsiya qilish va obodonlashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, turizm va sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi ishlar ko'lami kun sayin ortmoqda.

Qolaversa, sayyohlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida avtomobillarni ijaraga berish, dunyo bo'yicha aviabiletlar sotib olish xizmatlari yo'lga qo'yildi. Sayyohlarni kengroq jalb etish, milliy urf-odat va ana'analarimizni ularga yaqindan tanishtirishda “Palov sayli” kabi tadbirlarning

muntazam o'tkazilayotgani, zamonaviy infrutuzilma ob'ektlari bilan birga, choyxonalar bunyod etilayotgani qo'l kelmoqda. Masalan, "Mirpo'stin ota" ziyoratgohi yonida 1000 o'rinli choyxona foydalanishga topshirilishi ham viloyat turistik salohiyati oshishiga xizmat qilayapti.

Andijonga tashrif buyurgan kishi borki, dastlab muzeylar faoliyati bilan tanishadi. Zero, mazkur madaniyat maskani o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ko'prikdir. Bugungi kunda viloyatda 5 ta muzey faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular orasidan, ayniqsa, O'lkashunoslik muzeyiga tashrif buyuruvchilar soni ko'p. 1934 yilda tashkil etilgan ushbu muzeyda 30 mingdan ortiq noyob eksponatlar saylanayotgan bo'lib, ular Farg'ona vodiysi xalqlari tarixi, turmush tarzidan so'zlaydi. Vodiy tabiati, tabiiy boyliklariga oid eksponatlar, tarixiy hujjat va adabiyotlar, shu jumladan, 300 ga yaqin tasviriy san'at asarlari, 1000 dan ortiq amaliy san'at buyumlari mehmonlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Hozirgi paytda muzeyning Asaka, Shahrixon, Qo'rg'ontepa, Ulug'nor, Jalaquduq kabi tumanlarida filiallari ham ishlab turibdi.

O'lkashunoslik muzeyiga tutash hududda joylashgan Jom'e madrasasi tarixiy obidalardan yana biri bo'lib, u 1883-1890 yillarda bunyod etilgan. Masjid, madrasa va minoradan iborat majmuaning uzunligi 123 metr. Madrasa sharqqa qaratib qurilgan. Maydon o'rtasida peshtoq qad ko'targan. Uning ikki yonida bezakdor minora bor. Burchaklarida gumbazli darsxonalar, ularning o'rtasida ikki qavatli hujralar joylashgan..

Majmuaning g'arbiy qismida masjid bor. Uning tarhi to'g'ri burchakli xonaqoh va uch tomoni qator ustunli, shifti bezakdor ayvondan iborat. Minora balandligi 32 metr. Andijon viloyati hokimligining tashabbusi bilan ayni paytda bu erda olib borilayotgan ta'mirlash ishlari majmuaga yangi hayot bag'ishlamoqda. Zero, u kelgusida viloyat madaniy-ma'rifiy tadbirlari o'tkaziladigan asosiy maskanga aylanadi.

Hududda turizmni rivojlantirishda maqsadida tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib, muqaddas qadamjolar obod qilinmoqda. Xususan, tarixi bevosita viloyat o'tmishi, qadriyati, aholi turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan

“Devonaboy” masjidi tanib bo’lmas darajada o’zgarib, yangicha qiyofa kasb etmoqda. Uning naqshinkor minoralari, zamonaviy va Sharq me’orchiligi uyg’unlashtirilgan loyiha asosida qad rostlagan hashamatli binosi, biri-biridan mahobatli to’rtta darvoza, bitta xonaqo, ko’shk va ayvonlari, muhtasham devorlari shahar husniga hilol kabi yarashib turibdi.

Xorijlik sayyohlarni o’ziga jalb etgan maskanlardan yana biri Marhamat tumanidagi Mingtepa arxeologik manzilidir. U ikki yarim ming yillik tarixga ega bo’lib, YUNESKO ro’yxatiga kiritilgan.



Manbalarda keltirilishicha, u Mingtepa Davan (Farg’ona) davlatining poytaxti bo’lgan. Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi va O’zbekiston Fanlar akademiyasi hamkorligida besh yildan buyon olib borilayotgan izlanishlar natijasida bu erda 2-2,5 metr tuproq ostida katta shahar xarobalari topildi. Mudofaa devorlari, ichki va tashqi yo’llar, qal’a o’rni, aholi turmush tarzidan hikoya qiluvchi turli ashyoviy dalillar tarixning ochilmagan sahifasidan hikoya qilmoqda.

— Mudofaa devorlarining o’ziga xos uslubda pishirilgan loydan bunyod etilganligi o’sha davr me’orchilik san’atidan ogoh etadi, — deydi qadimshunos professor Boqijon Matboboev. — Necha ming yillar o’tgan bo’lsa-da, devorlar yaxshi holatda saqlangani, mustahkam sopol buyumlar, qurilish ashyolari topilgani o’sha davrda hunarmandchilik rivojlanganidan dalolat beradi.

Ayni paytda O’zbekiston — Xitoy qo’shma xalqaro arxeologik kompleks ekspeditsiyasi Farg’ona vodiysidagi eng katta qadimshunoslik yodgorligi — Mingtepa shahri xarobasida qidiruv ishlari olib bormoqda. Qazishmalarda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti (Samarqand), Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti (Pekin), Bobur xalqaro jamoat fondi mutaxassis olimlari hamda Andijon davlat universiteti tarix fakulteti talabalari, professor-o’qituvchilari faol qatnashmoqdalar.

Qazishma ishlari Mingtepa Buyuk Ipak yo'li boshlangan miloddan avvalgi II asrdan milodning V-VI asrlarigacha karvonlar qo'nim topgan, rivojlangan azim shahar bo'lganidan dalolat bermoqda. Asrlar hikmati va sirlarini yashirgan ushbu maskanda arxeologik izlanishlar davom etmoqda.

Hududda muqaddas qadamjolarining ko'pligi keyingi paytda sayyohlikning yana bir turi — ziyorat turizmini rivojlantirish qo'l kelmoqda. “Fozilmon ota” ziyoratgohi shunday qutlug' maskanlardan biri hisoblanadi. Ushbu qadamjoda ziyorat qilish, qur'on tilovat etish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Maskanning yana bir e'tiborli jihati Fozilmon ota bulog'ining mavjudligidir. Uning ko'z yorganiga 600 yildan oshgani aytilmoqda. Shuncha vaqtdan buyon u hudud aholisining asosiy suv manbai hisoblanadi. Shifobaxshligi bois o'ndan ortiq kasalliklarga davolashda tavsiya etiladi. Buloq atrofidagi 56 tup chinor daraxtlari esa asrlarni qaritib, viqor bilan ko'kka bo'y cho'zmoqda.

“Fozilmon ota” ziyoratgohi xorijlik mehmonlarning ham e'tiborini o'ziga jalb etgan. Shu bois ham Italiya, Germaniya, Xitoy, BAA, Janubiy Koreya, Rossiya, Ukraina, Belarus, Qirg'iziston, Qozog'iston, kabi davlatlardan tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Mamlakatimiz rahbari 2017 yilning 2-3 iyun kunlari Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida Xonobod shahriga tashrif buyurib, “O'zbekiston Shveysariyasi” nomini olgan ushbu maskanni turistik maskanga aylantirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berdi. Ayni paytda bu erda olib borilayotgan keng ko'lamdagi ishlar shaharning kelgusida sayyohlik markazlaridan biriga aylanishidan dalolat bermoqda. Xonobod — vodiyning eng so'lim maskani. Shahar hududidan oqib o'tuvchi beshta daryo va kanallar, kattaligi jihatidan respublikamizda uchinchi o'rinda turuvchi “Andijon suv ombori” hudud iqlimining mo'tadilligini ta'minlab turadi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 iyuldagi “2017-2019 yillarda Andijon viloyatining Xonobod shahrini kompleks rivojlantirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, kelgusi uch yil mobaynida 432 milliard 600 million so'mlik qurilish va obodonlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish ishlari bajariladi.

Xonobod shahrida ichki va ekoturizm salohiyatini oshirish borasida olib

borilayotgan ishlar andijonliklar ruhini ko'tarib yubordi, — deydi shahar bosh imom xatibi Mansurbek Rahimov — Xayrli ishlar natijasida qariyb o'n yildan buyon qurilishi yakunlanmay turgan 200 o'rinli "Xonobod" sanatoriyasi shu yilning ko'klamida foydalanishga topshiriladi. Shuningdek, adirliklardagi 150 gektar bo'sh yotgan maydonning 20 gektari aholi dam olish maskaniga aylantirilib, qolgan qismida yong'oq, pista, bodom, unabi bog'lari va tokzor barpo etiladi.

Aytish joizki, 2003 yilda qurilishi to'xtab qolgan "Dushanbe-Bishkek-Termiz" yo'lidagi Qoradaryo ustidan o'tuvchi ko'prik qurilishi ham shu yilning o'zida yakuniga etadi. Eng muhimi, "Andijon-Xonobod" yo'nalishi bo'ylab harakatlanuvchi elektrlashtirilgan poezd qatnovi



yo'lga qo'yiladi. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan ushbu loyihani joriy yilning yakuniga qadar amalga oshirish maqsadida ishlar yanada jadallashtirilgan. Bularning bari "O'zbekiston Shveysariyasi"ni mamlakatimizning eng so'lim sayyohlik maskaniga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ekoturizm istiqboli haqida gap ketganda, Paxtaobod va Ulug'nor tumanlaridagi suv havzalari atrofida mazkur yo'nalishda dastlabki loyihalar ijrosiga kirishilganini alohida qayd etish joiz. Baliqchi, Xo'jaobod tumanlarida esa gastronomik turizm keng quloch yoymoqda. Bu erda shunday maskanlar tashkil etilganki, xorijlik sayyohlar milliy taomlarimizni tayyorlash jarayonlarini shunchaki kuzatibgina qolmasdan, bevosita ishtirok etish imkoniga egalar. Tabiiyki, shohona taomimiz bo'lmish palovning tayyorlanish jarayoni barchaga birdek qiziq.


Namangan viloyati. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, marifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 1 tani tashkil qilib, 2017 yilda ular tomonidan 850 nafar tashrif

buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi. 2017 yilda Namangan viloyatiga 7,4 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan bo'lib, ulardan 4,5 ming nafari MDH davlatlarining fuqarolari tashkil etadi. Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 116,3 ming nafarni tashkil qilib, asosiy qismini Namangan viloyati fuqarolari - 53,3 ming nafar tashkil qildi. Bu esa o'z navbatida 96,6 foizni tashkil qildi.

2-rasm

2017 yilda Namangan viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning MDH, xorijiy va Namangan viloyati fuqarolari o'rtasidagi ulushi, foizda



2017 yilda Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 22 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 210,1 mln. so'mni tashkil qildi.

	Soni,	Qiymati,
Sotilgan sayyohlik	22	210,1
Ulardan bevosita aholiga shu jumladan:	22	210,1

O'zbekiston hududi bo'yicha	22	210,1
Chet el mamlakatlari bo'yicha	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari	-	-


1-jadval

2016-yilda sotilgan sayyohlik yo'Uanmalarining soni va qiymati

2017 yilda sayyohlik yo'llanmalarining 100,0 foizi (22 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan.

3-rasm

2017 yilda Namangan viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari




Soni κ Joylashtirilgan shaxslar soni, ming kishi

4-rasm

2016-yilda mehmonxonalarning toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati


Bir yulduzli mehmonxonalar 12,5%



2017 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 24 tani tashkil qildi. Ulardan, 12,5 % foizi bir yulduzli, 25% foizi uch yulduzli va 62,5% foizi toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalaridir.

Farg'ona viloyati. 2016 yilda Farg'ona viloyatida 32 ta mehmonhona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari 8 tani tashkil etadi. Joylashtirilgan shaxslar soni 47190 nafar bo'lib, MDH mamlakatlardan 3842 ta, Xorijiy mamlakatlardan 6659 ta shaxs joylashtirilgan.

2016 yilda Farg'ona viloyatida mehmonhona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida MDH, xorijiy va Farg'ona viloyati fuqarolari o'rtasidagi taqsimlanishi, foizda. **5-rasm.**



2-jadval

2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati,
Sotilgan sayyohlik	7168	4977.4
Ulardan bevosita aholiga	7168	4977.4
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi	2972	1359.7
Chet el mamlakatlari	3696	3568.3
O'zbekiston xududi	-	-
O'zbekiston xududi	500	49.4

2016 yilda Farg'ona viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 7168 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 4977,4 mln. so'mni tashkil qildi.

2.3. Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning ayrim masalalari va ularni hal etishning ustuvor yo'nalishlari

Ekologik turizmning asosiy maqsadi tabiat hamda insoniyatning bevosita muloqatini rivojlantirish uchun ayni muddaodir. Ekoturizm bu – tabiat boylab sayohat qilish. Inson hamma vaqt tabiatdan ajirmagan holda yashaydi. Shu boisdan insonda tabiiatning xilma-xilligi, o'simlik du'nyosi, hayvonat olami, shuningdek uzoq-yaqin o'tmishdan chu kungacha saqlanib qo'lgan tabiiy ekologik atrof muhit, hamda tabiiy-tarixiy yodgorliklarni tomasha qilishga bolgan ishtiyoxi yoqari boladi.

Ekologik turizm XX asrda jahon sayyohlik industriyasiga asta-sekin kirib kela boshladi. "90-yillarning boshlarida "Ekologik turizm" xalqaro, mintaqaviy va milliy miqyosda rasmiy maqomga ega boldi. 2002-yil BMT ning atrof-muhit dasturi (YUNEP) va Butunjahon turistik tashkilotning (BTT) tashabbusi bilan "Xalqaro ekoturizm yili" deb e'lon qilindi".¹

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekistonning dam olish va salomatlikni tiklash imkoniyatlari, sayohat marshurtlarining xilma-xil turlarini

¹ A.Nig'matov, N.Shamurotova. "Ekoturizm asoslari". – T: 2007. 31-32-b

tashkil etishga va sayohatshilarni butun yil davomida qabul qilishga sharoit yaratadi². 2006 yili 17-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari tog‘risida” Qaror qabul qilindi. 2007 yil 25-aprelda esa, Islom Karimov Singapurga qilgan davlat tashrifi oldidan “*Today*” gazetasiga bergan intervyusida “Go‘zal geografik va tabiiy sharoitlarimiz hududda ekologik turizmni rivojlantirish uchun g‘oyat qulaydir...” deb alohida takidlab o‘tdi.”³

Farg‘ona vodiysida ekoturizm uchun asosiy faktor bo‘ladigan atrof-muhit va borliqning ko‘pligi va rang-barangligi sababli turistik faoliyatni jadal su‘ratlarda rivojlantirishni davrning o‘zi talab etmoqda.

2018 yilda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Ekoharakat deputatlari guruhi hamda Fan, ta‘lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamkorligida yurtimizda ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlariga bag‘ishlangan davlat dasturi, Qaror va Farmonlar, seminarlar tashkil etildi. Unda quyidagi palata deputatlari, tegishli tashkilot va idoralar vakillari ishtirok etdi.”⁴

Ilmiy prinsip va asoslarga binoan Farg‘ona vodiysida hududi 5 ga yaqin ekoturistik mintaqaga ajratiladi. Har bir ajratilgan mintaqaga o‘zining ekoturistik holati, imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari nuqtayi-nazaridan ajralib turadi.

Farg‘ona vodiysining ekoturistik manzillari ichida So‘x, Farg‘ona, Shohimardon va Markaziy Farg‘onadagi qum landshaft ekzotikasi, Yakkatut (Uychi tumanida), tabiiy ekoturistik obyektlar Podshoota daryo havzasida joylashgan tog‘ oldi manzaralari (Yangiqo‘rg‘on tumanida), Chodaksoy hududidagi o‘ziga xos betakror tabiat mo‘jizalari (Pop tumanida), Baliqko‘l majmuasi (Chortoq tumanida), Chortoq, Gulshan, Kosonsoy, Shahand, Chodak, Zilol suv, Ko‘ksaroy kabi ekoturistik hududlarning o‘ziga xos tomonlari bilan aloxida ajralib turadi.

Vodiyda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiiyatimizga jalb etish, noyab o‘simliklar va hayvonat dunyosini saqlash va ko‘paytirish muammolarini hal qilishga, balki shu bilan birga

² I.Karimov.”O‘zbekiston buyuk kelajak sari”. – T: “O‘zbekiston’ 1998. – 99-b.

³ A.Nig‘matov, N.Shamurotova. “Ekoturizm asoslari”. – T: 2007. 3-b.

⁴ “Xalq so‘zi” gazetasi 2013-yil 13-sentyabr, 181-son 2-b.

ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yaxshilash, aholini yangi ish bilan taminlashga yaxshi samara beradi. Vodiy O'rta Osiyoning o'rtasida ekoturizimning rivojlanishi uchun qulay geografik hududda joylashgan, rivojlangan turli xildagi kommunikatsiya, aloqa yo'llari bilan bog'langan bo'lib, o'zining xalqaro turizm salohiyati bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Vaxolanki, mamlakatimizning aksariyat axolisi, turistik maxsulotlarning istemolchilari Farg'ona turistik rayonida istiqomat qiladi;

Vodiy axolisining asosiy kismi kishlok xujaligida ogir mexnat bilan shugullanadi. Xozirgi rivojlanib borayotgan zamonda mintakada sanatoriylar, dam olish uylarini kupaytirish, turizm infrastrukturasini yaratish evaziga chet ellik turistlarni kuprok jalb kilish zarur. SHu orkali kelajakda axolini yengil mexnat kilishga va xizmatlar orkali kuprok daromad olishga urgatish joiz;

Ilmiy ishning turistik marshrutlar va ulardan foydalanish bulimida aytib utilganidek, vodiyda maxalliy turizmni rivojlantirish dolzarb muammolardan xisoblanadi. Buni ustiga vodiy axolisini respublikaning boshka viloyatlaridagi ziyoratgoxlar yoki oromgoxlarga borib sayoxatlarni amalga oshirishlariga Kamchik davoni xam bir kancha nokulayliklar tugdiradi;

Ammo shunga karamay, sungi kuzatuvlarga kura, 20 – 60 yosh atrofidagi vodiy axolisi Samarkanddagi Al – Buxoriy, Buxorodagi Baxoutdin Nakshbandiy kabi bir kancha ziyoratgoxlarga avtomobillarda gurux – gurux bulib norasmiy turistik marshrutlarni amalga oshirayotganliklari aniklandi. Aslida bunday marshrutlar turistik tashkilotlar va maxalliy xokimyat tomonidan sayoxat mavsumida oyda 1 – 2 marta temir yul yoki «Uzbekiston xavo yullari» aviakampaniyalari bilan shartnoma tuzgan xolda, imtiyozli ravishda sayoxatlar amalga oshirilsa mausadga muvofik bular edi;

Bu soxadagi eng achinarli muammalardan biri «Uzbekturizm» MK si Andijon viloyat bulimining ish faoliyatini juda sust darajadalgidadir.

Xattoki tashkilot ahzolari viloyatdagi turistik obhektlar soni, ularning geografik joylashuvi va kandy marshrutlar yulga kuyilgan degan oddiygina savollarga javob bera olmaydi. Viloyat turizmini rivojlantirishda asosan kadrlar

masalasini xal etish, tajribali turoperatorlar, turagentlar, mexmonxona xizmatchilari va gid – tarjimonlarni yetishtirish kabi muammolarni tez orada xal qilish zarur.

Ayni chogda Fargona vodiysida mavjud iqlimiy sharoitlardan kelib chikib, dam oluvchilar uchun turli xil turistik majmualarni bunyod etish mumkin. Bunda albatta jaxon tajribasini urganish va shu asosida milliylikni unutmagan xolda turistik majmualarni tashkil etish zarur.

Misol tarikasida, Xiva shaxridan 11 km uzoklikda joylashgan «Karakum - Tur» Ltd ekstrim turizm tashkiloti. Bu tashkilot chet ellik va maxalliy mexmonlarga bir – biridan kizik va xayajonli uyinlar, uchrashuvlar urin olgan dasturni xamda sifatli xizmatlarni taklif etadi.

«Karakum - Tur» Ltd tashkiloti chul xududida joylashgan bulib, yozda xarorat urtacha 30°S, maksimum 50°S ga chikadi. SHunday issik ikyinchiliklarga karamay turizm ishkibozlari 1 – kunga dam olish uchun keladilar. Dam olish kunlari, mobaynida turistlar turli zaxarli ilonlar, echkikamarlar, xashorotlar bulishiga karamay jazirama issik chulda tuyada sayoxat uyushtiradilar. Yana xudi shunday tashkilotlardan «Ayazkala - Tur» turistik firmasi Korakolpogistonning janubiy kismida, Amudaryo buyicha joylashgan. Bu firma turistlarga daryo buylab sayoxat, balik ovi, Orol dengiziga sayoxat kabi kizikarli marshrutlarni taklif kiladi;

Fargona vodiysida xam shunday turistik firmalarni kupaytirish Pop, Yozyovon chullarida, CHotkol – Kurama, SHoximardon va boshka tog yonbagirlarida ekstrim – sport turizmini rivojlantirish maksadga muvofik bular edi. Sungi mahlumotlarga kura, Uzbekiston turizm istikbolida turizmdan keladigandaromad asosan ekoturizm 41 %, madaniy turizm – 22 %, tarixiy – 14 foizni ekoturizmni tanlashadi.

SHunday ekan ekoturizmni rivojlanishida Fargona vodiysi eng kulay xudud xisoblanadi. SHu bois viloyatlardagi mavjud mexmonxonalarini kayta tahmirlab, chet ellik mexmonlarga kulay narxlar belgilanib, sifatli xizmatlar kursatilsa xamda vodiy buylab kizikarli marshrutlar kursatilsa xamda vodiy buylab kizikarli marshrutlar dasturi ishlab chikilsa, mamlakatimizning boshka viloyatlari singari

Fargona vodiysiga xam chet ellik turistlarning kelishi kupayadi va turizmdan tushadigan daromad ortadi;

Sunggi yillarda vodiya turizmni rivojlanmayotganligini asosiy sababi deb ilmiy ish jarayonida shu narsa topildiki, viloyatlardagi tarixiy – mehmoriy yodgorliklarni kamligi va majmuali xolatda joylashganligi baxona kilib kursatilmokda.

Vaxolanki, vodiya yakin kelajakda tarixiy – mehmoriy turizmdan kura ekoturizmni rivojlantirish eng tugri yul xisoblanadi. Ayni ochik tabiatda, turli sarguzashtlarga boy dam olishni tanlagan yoki sogligini tiklash maksadida kelgan rekrantlarni tarixiy obidalar buylab sayoxatga olib chikish vodiya turizmini uziga xos sbir modeli bulib kolish kerak.

Demak, Fargona vodiysida birinchi navbatda ekologik turizm, keyin esa madaniy turizmni yulga kuyish maksadga muvofik buladi;

SHu urinda tahkidlash joizki, vodiyning turistik saloxiyati yaxshi urganilmagan, turli sabablar, jumladan mintakaning anklav xolatda joylashganligi, uning transport – geografik urnini uziga xos xusisiyatlari bu yerda xalkaro turizmni rivojlantirishda xozirgi mahlum muammolar tugdirmokda. Maxalliy turizm uchun esa Fargona vodiysida turli xil kadamjo va ziyoratgoxlar, balikmozor va gorlar, kadimiy shaxar xarobalari (Axxi, Pop, Kosonsoy va b.) kup. Birok, bunday imkoniyatlardan foydalanish darajasi xam talab darajasida emas. Binobarin, vodiyning mavjud turistik saloxiyatini atroflicha urganish, tegishli shart va targibot ishlari yaxshi yulga kuyish uning ijtimoiy – iktisodiy rivojlanishida kata axamiyat kasb etadi.

Bajarilayotgan ilmiy ish jarayonida yana shunday muammolar aniklanadiki, urganilayotgan mintaka mahlumki, Kirgiziston Respublikasi bilan chegaradosh. Anklav xududda joylashgan SHoximardon, Sux dam olish zonalariga borayotgan sayoxatchilar bevosita Kirgiziston chegarasidan utishi kerak. Aynan chegara xududlarda esa maxalliy turistlarda viza bilan boglik muammolar yoki umuman SHoximardon, Sux xududiga utkazmaslik kabi xolatlar kuzatiladi. SHunday bahzi ziddiyatli vaziyatlarni uzaro kelishuvlar imzolasa, mamlakatlararo turizm xam

yaxshi rivojlanar edi, chunki Kirgizistonning Arslonbob, Jalolobod, Issikkul dam olish zonalariga Fargona vodiysidan kuplab sayyoxlar dam olish uchun boradi.

Shundan kelib chiqqan holda, ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini davrning o'zi taqozo etmoqda:

- mintaqada ekoturizmni jahon talab-lari va andozalari saviyasida xizmat ko'rsatishida xususiy firma va mehmon-xonalar ish faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga amaliy yordam berish;
- ekoturizmni taraqqiy ettirish maqsadida xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalb etish, xorijiy mamlakatlar va kompaniyalar bilan hamkorlikning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish hamda rivojlantirish;
- mavjud turistik imkoniyatlardan eng yuqori darajada foydalanish va uni rivojlantirishni tahminlash;
- ekoturizmni jahon talablariga javob beradigan darajaga yetkazish va shuning bilan bir qatorda servis xizmatlarini jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish va takomillashtirish;
- hunarmandlar uylarini bunyod etish va ular sonini ko'paytirish, ularda tayyorlanayotgan mahsulotlarni doimiy savdo – ko'rgazmasini tashkillashtirish va sovg'abop buyumlar yasashni yo'lga qo'yish;
- turizm va ekoturizm sohalari uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora – tadbirlari kompleksini ishlab chiqish, amalga tadbiiq qilish, shuningdek turizm tarmoqlari fanlarini rivojlantirish;
- ekoturizm manzillari qishloq hudud-larida joylashganini hisobga olib, ularga olib boruvchi avtomobilg' yo'l-larini tamirlash, avtomagistrallar bo'ylarida ovqatlanish va dam olish maskanlarini barpo etish hamda mavjudlarining sanitariya holatini talab darajasida bo'lishiga erishish;
- turistlarga xizmat ko'rsatuvchi, turizm va ekoturizm sohalari xodimlari malakasini oshirish bilan shug'ullanadigan xo'jalik hisobida ish yurituvchi alohida markazlar tashkil qilish kabilardir.

Shunday ekan, tabiati, urf – odati bir xil bulgan bu xudud o'zaro ekoturistik faoliyatini yulga kuysa xar ikala mamlakat uchun xam foydali tadbir bular edi.

XULOSA

Turizm jahon yalpi mahsuloti va iste'mol savdosining 10/1, dunyo eksportining 8 foizini, savdo xizmatining 30 foizi, xalqaro investitsiyalarning 11 %i, 8/1 ish o'rni ta'minlayotgan industriyaga aylanishida nisbatan yangi va jadal suratlarda o'sib borayotgan ekoturizmning o'rni bor. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida "Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish" hamda "odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash masalasi qo'yilgan".

Ekoturizmni rivojlantirishning eng maqbul yo'li mahalliy va ma'muriy miqyosda turistik imkoniyatlarni o'rganish, uning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish istiqbolini ishlab chiqishga bog'lik ekan. Farg'ona vodiysi ham bundan mustasno emas. Vodiy miqyosida olib borilgan tadqiqotlar ekoturizmni boshqa turistik turlar bilan aralashtirib yuborish va natijada noaniq statistik ma'lumotlar bazasini yuritish va ilmiy asoslanmagan rejalarni tuzishga olib kelmoqda.

Jumladan, Namangan viloyati hokimining 2016 yil 16-fevraldagi "Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarorining amaliy ijrosi ta'minlash maqsadida hududning ilmiy asosda turizm industriyasini tashkil etish va rivojlantirishni uning tabiiy sharoitini o'rganish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy-iqtisodiy ot darajasini aniqlashdan boshlandi. So'ngra, turizm va unga tegishli atama va iboralarning ilmiy asoslash va yagona bir tushunchasi, mazmuni va mohiyatini aniqlashtirib olishni talab etadi.

Masalan, turizm - shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik borar joyiga 24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket, muayyan maqsadda yoki maqsadlarda pul to'lanmaydigan sayohatni turli miqyosda tizimli tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san'ati. Mazkur tushuncha barcha viloyatlarda turizmni tashkil etish, rejalashtirish, rivojlantirish, hisobini yuritish kabi ishlarga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tib borayotgan Farg'ona vodiysida shahar va tumanlarning turistik imkoniyatlarini aniqlash, rejalarini tuzish va istiqbollarini belgilash orqali rivojlantirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Farg'ona vodiysi shahar va tumanlari esa ularning tabiati, ijtimoiy holati va iqtisodiy infratuzilmasi biri ikkinchisidan keskin farq qiladi va shuning uchun ham turizmni rivojlantirishda ularga individual yondashishga to'g'ri keladi.

Lekin, ekoturizm bundan istesno, zero uning asosiy maqsadi ekotizimlarni muhofaza qilish, uning resuslaridan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashdan iborat. Shuning uchun ham ekologiyaning ob'ekti bo'lmish ekotizimlarning mazmuni va mohiyatini ochib berish, mahalliy miqyosda hududning katta-kichigligiga qarab ekotizimlarni tasniflash, kartaga tushirish, sayyohlik imkoniyatlarini aniqlash masalasi ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zero, ekoturizm - shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik bir or joyga 24 soatdan to 6 oy muddatga ketma-ket, uning ekotizimlaridan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resuslaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat muammolarini qayta tiklashni maqsad qilib olgan pul to'lanmaydigan sayohatni turli miqyosda tizimli tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish san'ati ekan, unda ekotizim alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ilk bor Farg'ona vodiysining Namangan viloyatida V-ta ekotizim tipi va 14 ta miniekotizim turi ajratib olindi. Miniekotizimlar o'lchami ekologik komponent va elementarining ichki komponentlararo boshqaruv hamda qayta tiklash imkoniyatini yaratuvchi yer maydoni. U 1:200000 masshtabdagi "Namangan viloyati ekotizimlar kartasi"ni yaratish orqali uning hududiy tarqalish qonuniyatlarini ochib berish imkoniyati berdi. Ekotizimlarni tasniflash va nomlashda uning dominanti qilib baland va o'rtacha balandlikdagi tog' ekotizimlarida o'simlik va hayvonot dunyosi, past tog'lardan to tekislik ekotizimlariga tushib borgan sari kishilik jamiyatining xo'jalik yuritish faoliyati olindi. Ekotizimlar tipi va turi geografik tavsiflandi va ularning har birining hududiylik, davriylik va koplekslik turistik hususiyatlari ochib berildi.

Ekoturlarni tashkil etish, olib borish va hisobini yuritishda, boshqa turistik

marshrutlar dan farqli ravishda, sayyohlik ob'ektlarining jozibadorligi, betakrorligi, imkoniyatliligi, mazmundorligi, alternativligi, majmualiligi, axborotlanganligi bilan bir qatorda uning xavfsizligini inobatga olish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining xavfsizlik ta'minlash vazifasiga mos tushadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, Toshkent, 2017-yil 7-fevral // www.lex.uz.
2. 2016 yil 4 maydagi «Qishloq joylardagi aholiga servis xizmat ko'rsatishni yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 139-son qarori // www.lex.uz.
3. Namangan viloyati hokimining 2016 yil 16 fevraldagi "Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori
4. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari.- Namangan: Namangan,2000,11 -32b.
5. Дроздов, А.Б. Современный экотуризм: концепции и практика.- Москва. КОИПУС, 2009. - 245-260 с.
6. Егоренков Л.И., Ердаuletov С.Р., Ещё раз к вопросу науки о теризме // Международная научно-практическая конференция. Вестник, (42) Казахстан, 2016. -22 с.
7. Kamolov B.H. Viloyat hududidagi ekoturistik resurslar va ekoturistik marshurutlar Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari // Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Namangan, 2016. 97-101 b.
8. Kamolov B.H. Davlat dasturi nigohida - turizmni rivojlantirish masala lari (Namangan viloyati misolida) // Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Namangan, 2016. 305-307 b.
9. Kamolov B.H. Chodaksoyda ekoturizmni rivojlantirish masalalari // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 48-jild.-Toshkent, 2016. 115118 b.
10. Kamolov B.H. Mintaqaviy ekoturizmni Farg'ona vodiysida rivojlantirish masalalari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. 1/2-jild.-Toshkent, 2017. 44-46 b.
11. Kamolov B.H. Ahsikent, an ancient ekoturism destination of Namangan region // Проблемы региональной экологии журнал.№5.-Россия, 2017. 154-156 с.
12. Камолов В.Н. Chust tumani mustaqillik yillarida. Ilmiy ommabop qo'llanma.-Namangan: Namangan, 2013.-76 b.
13. Kamolov B.H., So'pijanov Q. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida ekoturizmning rivoji // ekologiya xabarnomasi.10-son.-Toshkent, 2016. 51-52 b.
14. Mahmudov.L.M. Axsikent yodgorligini o'rganish va uni turizm manzilgohiga aylantirish istiqbollari. -Namangan: Namangan, 2016. -24b.
15. Lutfullaev.P.M. Ekoturizmni tashkil yetishning xorijiy tajribasi // Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari. -Namangan, 2016. 235 b.

16. Mirzamaxmudov O.T. Adirlar mintaqasidan rekreatsiya maqsadida foydalanish // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. -Toshkent, 2002. 166-167 b.
17. Набиев М.М. Растительность пестроцветных толщ бассейна р. Майлиса. Восточная часть Ферганской долина.-Труды Ин-та ботаники АН Уз. вып. 5.1959.-28-45с.
18. Nazarov A.A. Tabiatan foyalanishning yekologik-geografik asoslari (Namangan viloyati misolida). Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim yetilgan dissertatsiya.-Toshkent, 2004. -100-147 b.
19. Nigmatov A. Ekologiyaning nazariy asoslari.-T., 2013. - 270 b.
20. Nigmatov A.N., Kamolov B.H. Barqaror rivojlanishda ekoturizm mustaqil fan, ta'lim va amaliyot yo'nalishi sifatida // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 49-jild. -Toshkent, 2017. 16-22
21. Soliyev A. Farg'ona vodiysi daryolari suv oqimimini iqlim o'zgarish sharoitida baholash. G.f.n.ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss.-Toshkent, 2008.8-41b.
22. Usmonov M.R. Farg'ona vodiysining istiqboli tarmog'i yoxud uning tizimi xususida // Farg'ona vodiysi tabiatini muhofaza qilishning yekologik geografik asoslari.- Namangan, 2003. 85-86 b.



XALQARO TURIZM

Xalqaro tashrif buyuruvchi turistlar (XTT): 1087 million kishi

Xalqaro turizmdan tushgan daromad (XTD): 1159 milliard AQSH dollari



Manba: UNWTO tourism highlights 2014 edition. BTTningturizm bo'yicha yillik xisoboti.

Ekoturizmning turlari va tarkibiy qismlari

- *Ilmiy turizm*
- *Tabiat tarixini o'rganish turlari*
- *Sarguzasht turizmi*
- *Alohida muhofaza etiladigan turizm*

Ekoturizmni ekoturlar bo'yicha tasniflanishi.
(T.V.Bochkaryova bo'yicha, 2003)

<i>Ekoturizm</i>	<i>Ekoturlar</i>
<i>Sinfi</i>	1. Qo'riqlanadigan yovvoyi tabiat chegarasidagi
	2. Qo'riqlanadigan yovvoyi tabiat chegarasidan tashqarisidagi
	3. Madaniy lanshaftlardagi
<i>Ko'rinishlari</i>	1. Asosiy maqsad bo'yicha
	2. Asosiy ob'ekt bo'yicha
<i>SHakllari</i>	1. Qatnashuvchilarning yoshi bo'yicha
	2. Qatnashuvchilarning salomatligi bo'yicha (chegaralangan holda)
	3. Guruhlarning soni bo'yicha (katta va kichik)

www.arxiv.uz

**Namangan viloyatidagi ekoturistik rayonlar va
istiqbolli marshrutlar**

T/r	Ekoturistik rayon	Turistik marshrut	
		Sof ekoturistik	Majmualii turistik
1.	Qurama - Chotqol tog'	1.Namangan-Pop-Chodak-Qamchiq dovoni-Arashon buva; 2.Pop-Parda Tursun; 3.Pop-Munchoqtepa-Pop; 4.Toshkent-Qamchiq dovoni-Arashon buva;	1.Namangan-Pop-Parda Tursun-Chodak-Qamchiq dovoni- Toshkent;
2.	Chodak-Chust-Kosonsoy-Yangiqo'rg'on tog' oldi	1. Chodak-Chust-G'ova- Chust; 3.Namangan - Kosonsoy - Orom dam olish maskani; 4.Namangan - Chortoq-Mamay-Nanay;	1.Namangan-CHust-Kosonsoy-Mug' tepa-CHortoq-Baliqko'l-Yangiqo'rg'on-Namangan;
3.	Sirdaryo o'ng sohil tekisliklari	1.Namangan-To'raqo'rg'on-Axsikent-Shaxant-Namangan; 2.Namangan shaxri; 3.Namangan-Uychi-Uchqo'rg'on-Namangan;	1.Namangan shaxri-To'raqo'rg'on - Axsikent; 2.Namangan-Uychi-Uchqo'rg'on-Namangan;
4.	Sirdaryo chap sohil tekisliklari	1.Namangan-Sirdaryo-Sho'rsuv-Namangan; 2.Namangan-Markaziy Farg'ona cho'llari -Namangan;	1.Namangan-Sirdaryo havzasi-Mingbuloq-Namangan;

Manba: Namangan viloyatining turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

O'zbekistonning betakror tabiat manzarasi



